

**THE ROLE OF COOPERATION IN THE EDUCATION OF A
DEVELOPED GENERATION**

U.Toliboyeva

Senior Lecturer of the Department of Education at Syrdarya VXTXQTMOI for
Preschool, primary and special education

ANNOTATION

This article tells about times when a human being is born, he is constantly developing, growing, and being educated by the external world, under the influence of the external world. Family upbringing is one of the most important factors in the proper growth and development of future heirs, and one of the most important factors is the educational institutions.

Keywords: *cooperation, self-development, nurture, past times, role of family.*

INTRODUCTION

Insoniyat tamonidan o'nlab ming yilliklar davomida yaratilgan o'zgarmas qadriyatlar orasida oila eng buyugi hisoblanadi. Hech bir millat, hech bir madaniy jamiyat oilani chetlab o'tmaydi.

Oila insonning rivojlanishi va takomillashuvi uchun eng yaxshi muhit hisoblanadi. Oila shaxsning ijtimoiylashuvida muhim instituti hamdir. Aynan oilada ijtimoiy o'zaro muloqatning dastkabki tajribasini oladi. Ma'lum bir vaqt davomida oila bola uchun shunday tajriba olishning yogona joyi hisoblanadi. Shundan keyin inson hayotiga bolalar bog'chasi, maktab, ko'cha singari ijtimoiy institutlar kirib keladi. Biroq bu vaqtda ham oila va ota-ona rivojlanishida muhim omillardan biri, ba'zida esa eng muhim omillardan biri bo'lib qoladi. Aynan oilada bolalar oddiy va tabiiy hayotga o'rganadi, shuningdek har kuni ertalabdan kechgacha, ba'zan tuni kun oila yoki ota-ona shaxsi aka-uka, opa-singillar, buvi va buvalar tamonida o'z o'rnida namuna bo'lib xizmat qiladigan turli tuman xulq atvor shakllari, so'z, shuningdek mehnatga o'rganadi.

Bolalikdagi tajriba asosida oilada insonning muhimroq ijtimoiy tavsifi shakllanadi. Bunday shaxsiy qirralar, ishonch o'z-o'zini baxolash, "Men" konsepsiyasi ota-ona va aka-opalarning bolaga qaratilgan munosabatlar asosida yuzaga keladi

Bola faqatgina oilada qanday yashashni va nimani his qilishni, nimani bilish kerakligini tinglash his etish asosida emas, balki hayot haqiqatdan qandayligini, aslida odamlar o'zini qanday tutishi kerakligini ularning bir-biriga va boshqalar nisbatan munosabatini boholash va fikrlash orqali o'rganadi.

Oilaviy tarbiya uzluksiz, davom etadi. Bunda hech bir institut oila bilan tenglasha olmaydi. Haqiqatan, inson tug'ilgandan boshlab to umrining oxirigacha oilaning ta'siri ostida bo'ladi. Oilaning bolaga noyob ta'sirini oilaviy tarbiya jarayonining o'ziga xosligi ham belgilaydi. Ota va ona avtoriteti hamda shaxsiy namunasi, qarindoshlik tuygulari, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining o'zaro hissiy munosabatlarining bolani har tamonlarni rivojlanishida roli katta, bularga oiladan tashqarida erishib bo'lmaydi.

MAIN PART

Hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, shaxs oilada shakllanadi. Aynan oilada shunday qimmatbaho sifatlar- borlig'ni diqqat bilan kuzatish, tabiat va san'atdagi go'zallikni his qilish, bilimga serhavas bo'lmoqlik, intizomlilik, vijdonli, o'z mehnat majburiyatlariga ma'suliyat bilan yondashish, boshqalarning extiyojlariga hamdardlik bilan qarash va zarur bo'lgan holarda yordam ko'rsatish kabi xislatlar shakllanadiki, xuddi shu sifatlar yetuk insoniy shaxsning fazilatlar hisoblanadi.

Yuqorida biz oilaning tizim bola tarbiyasiga shaxs bo'lib shakllanishiga ta'siri haqida gapirdik.

Bola shaxsining shakllanishi ilk davridan ta'lim tarbiya berib borilmog'I zarur. Bolani ta'lim tarbiya olishi oiladan boshlanib maktabgacha ta'lim etganida maktabgacha ta'lim muassasasida davom ettiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi bu qanday ta'lim muassasasi?

Bu savolga ko'pchilik bolalarga she'r ashulalar o'rgatiladigan, bolalarni tashlab ketsa boladigan, kechgacha qorni to'q nazorat ostida bo'ladigan joy deb hisoblaydilar. Aslida-chi bu maskanda kelajak avlod tarbiyasini shakllantiruvchi qanday omillar mavjud ekan. Keling, shularni birma-bir taxlil qilib ko'raylik:

-bolada mustaqillikni tarbiyalaydi.Oilada u ota-onasi, bobo buvisi, opa singlisi, aka - ukasi qaramog'ida, ular yonida bo'ladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida-chi, yerda mustaqil o'zi ovqatlanadi,o'z xoxishini namayon qiladi,o'z fikriga ega shaxsga aylanadi.Endi u o'zini o'zi himoyo qiluvchi shaxsga aylandi.

-U o'zini tashqi ta'sirlardan himoya qilishni, qarshilik ko'rsatishni organadi.

-Jamoada o'ynash, jamoa uchun jon kuydirishni, o'z jamosini himoya qilishga o'rganib boradi.

- Bolada ahloqiy estetik did rivojlanib boradi.U endi o'rtoqlariga qarab kiyinishga, kiyimlarini tozalab yurishga, chiroyli kiyinishga, o'z tengdoshlari bilan do'stlashishga o'rganib boradi.

- Uning san'atga qiziqishi o'shadi, u endi o'z san'atini namoyish qiladi, sahnada o'zini tuta olishga o'rganib boradi.

- Ta'lim standartlariga javob beradigan ta'lim tarbiyani o'rganib boradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bola tarbiyachisiga, taqlid qilish bilan ko'p narsani o'rganib boradi.

U oiladagidek qulayliklarga, ijtimoiy muhitda ta'lim tarbiya oladi.

Xo'sh bolani shaxsini rivojlantiruvchi bu ikki dastlabki institut aytish joiz bo'lsa dorilfununlar nega hamkorlikda ish olib bora olmayapti?

Axir bu ikki dorilfununlar hamkorligi juda muhim va zarur bo'lgan bir vaqtda bu hamkorlikka qanday omillar ta'sir ko'rsatayapti?

Bu hamkorlik zarurmi?

Nega oilalar ta'lim muassasalar bilan hamkorlik qilish ishini orqaga surib qo'ymoqda?

Bu qator savollarga javob berish muammolar yechimini topish vaqti kelmadimikin.Ota-onalar javob topa olmagan savol, muammolar yechimi balki maktabgacha ta'lim muassasalaridadir?

Endi savol muammolar yechimiga o'tsak. Oila bilan maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligi juda dolzarb masala hisoblanadi. Chunki oilada ota-ona boshlagan ta'lim tarbiya ishini Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyachi pedagoglar davom ettiradi. Shunday ekan ota-onalar oilani tashkil etuvchi a'zolar kelajak davomchilarini Maktabgacha ta'lim muassasalarda erishayotgan yutuqlari bilan nega qiziqmay qo'yishmoqdalar. Ko'pchilik ota-onalar har chorakda ota-onalar yig'ilishlarida ishtirok etsa bayramlarida tomoshabin sifatida ishtirok etish bilan chegaralanadi. Shuni o'zi yetarlimikin. Yo'q albatta.Ota-onalar xozirgi kunda faqat pul topish bilan band bolib qolmayaptimikin.Bolani qornini to'yg'azish ustini kiyintirish bilan chega ralanib qolmadikmikan?

CONCLUSION

Bu narsalarni oldini olish uchun ta'lim muassasalarida "OILA" markazlarini tashkil etish zarur. Bu markazda sizning hamma muamolaringizga echim topib bera oladigan pedagoglar, psixologlar, qariyalarimiz jamlanishi kerak. Oila markazlariga bola ona qornidaligidayoq tarbiyalash va talim tarbiya berish, unda ota-onaga xurmat, vatanga muhabbat ruxlarini tarbiyalash uchun jalb qilinmog'i kerak. Bola murg'ak vaqtidanoq tashqi ta'sirlarni xis qilishi, uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi hammamizga ma'lum. Homilador ayol yarim soat bir soat vaqt xush navo kuy tinglasa, chiroyli manzaralarga qarab xordiq chiqarsa, bola tarbiyasi xush xulqlik haqidagi rivoyatu termalardan eshita qanday yaxshi bo'lardi.

Bundan xulasa shu kelajak vorislari bolalarimiz ta'lim tarbiya olishiga xar tamonlama sog'lom va etuk bo'lishi biz ota-onalar va jamoachilik qo'lida. Kelajakni qanday ko'rmoqchi bo'lsangiz ung poydevorini xozirdan mustahkamlang.

REFERENCES:

1. Foster, PJ (1965). Kasb-hunar maktabining rivojlanishni rejalashtirishdagi xatoligi. J. Karabel va H. Haseyda
2. (Eds.), Ta'limdagi kuch va mafkura (142-166-betlar). Pensilvaniya, Pensilvaniya: Oksford universiteti matbuoti.
3. Gallart, MA (1988, may). Argentinada texnik ta'limni ikkinchi bosqichga o'tkazish va qiyosiy nuqtai nazardan Braziliyada o'rta ta'limni kasbiylashtirish. Taqdim etilgan qog'oz kasb-hunar ta'limi konferentsiyasi. London.
4. Bangladesh hukumati. (1997). Beshinchi besh yillik reja. Dakka, Bangladesh: Bangladesh hukumati Matbuot.
5. Hallak, J. (1990). Kelajakka sarmoya kiritish: Rivojlanayotgan dunyoda ta'limning ustuvor yo'nalishlarini belgilash. Parij:
YuNESKO. Hyland, T. (1999). Kasbiy tadqiqotlar, umrbod o'rganish va ijtimoiy qadriyatlar: ta'limni o'rganish,
6. Yangi shartnoma bo'yicha ta'lim va NVQ - Ta'limdagi o'zgarishlarni kuzatish. Ashgate, Buyuk Britaniya: Brukfild.
7. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT). (1993). Tikuvchilik sanoatidagi ish ta'riflari. Dakka, Bangladesh: XMT.